



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024 - YIL YANVAR - MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2024- yil yanvar- may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024 - yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 358,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining 16,2% ga kamaygani, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining 8,1 % ga oʻsishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 38,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Yanvar-may

2024-yil yanvar-may

Tumanlar miqiyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. soʻmda

Tumanlar nomi	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Gʻallaorol tumani	6 147,5	5 006,5	-1 141,0
Sh.Rashidov tumani	5 305,7	13 275,1	7 969,4
Zomin tumani	603,6	596,1	-7,5
Jizzax shahri	3 065,8	12 790,8	9725,0
Zafarobod tumani	3 035,3	2 047,8	-987,5

Jami sanoat ishlab chiqarishi togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahri (33,1 %), Sharof Rashidov (34,4 %) va Gʻallaorol (13,0 %) tumanlari hissalariga toʻgʻri keldi.

71,8 %

2023- yil

83,8 %

2024- yil


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-may

FHI,% da



2024- yilning yanvar-may oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 131,2 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3 % ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar-may

97,3 %

2024-yil yanvar-may

97,3 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% (0,1%) ni o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 54,2 % (50,0 %) ni, o'rtayuqiy texnologiyali 12,3 % (15,1 %) va quyi texnologiyalisi - 30,7 % (32,1%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 54,2% (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1%), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 15,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,7 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,9 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,7 % (2023- yilning yanvar –may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	12 593,0	11 427,0	- 1 166,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	6 146,5	6 133,1	- 13,4
Paxta chigiti, t.	18 803,0	17 296,0	- 1 507,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	1 641,5	3 993,1	2 351,6
Paxta linti, t.	1 111,0	1 075,0	-36,0
Trikotaj polotnolar, t.	12 088,5	9 687,2	-2 401,3

2024- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,2% ga kamaygan), 11,4 ming tonna paxta tolasi (9,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, 17,3 ming tonna paxta chigiti (8,0 % ga kamayga) ishlab chiqarilgani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

99,8 %


Paxta tolasi, t.

90,7 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 156,6 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 15,4 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 11,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-may oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 134,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,0 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 829,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 730,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 91,0 % ni tashkil etgan. 2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 20,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 105,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, fizik hajm indeksi 102,0 %ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 260,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 158,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 %, fizik hajm indeksi 87,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 186,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 121,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 261,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr jihozlari ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 166,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4% ni, fizik hajm indeksi 142,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 287,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 187,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 68,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 131,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,9 % ini) tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,6 % ga oshishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	71 314,1	108 422,8	37 108,7
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	38 879,5	48 705,7	9 826,2

2024-yil yanvar-may

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	31 545,6	19 771,1	-11 774,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6 419,5	12 018,4	5 598,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 37,3 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 87,2 % ga oshishi kuzatildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2 524 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 681 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,0 %) Jizzax shahriga, 357 tasi (14,1 %) Sharof Rashidov tumaniga, 284 tasi (1,3 %) G'allaorol tumaniga, 242 tasi (9,6 %) Zomin tumaniga va 157 tasi (6,2 %) Zarbdor tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.

